

About some of the factors that led to the drying up of the Aral Sea

Egamberganova Dilafruz Baxodirovna

Student of Urgench State University

Khudarganova Dildora Kuzibayevna

Student of Urgench State University


Karimova Qizlarxon Jabberganovna

Student of Urgench State University

Annotation: We know that for some reason something else appears or disappears. There are many such examples. In this article, we provide information on some of the factors that led to the formation of the Aral Sea, the second largest in the Eurasian continent.

Keywords: ecological problems of the island, concept, reclamation measures, hypothesis,

Kirish: Orol dengizi — Oʻrta Osiyodagi eng katta berk koʻl. Maʼmuriy jihatdan Orol dengizining yarmidan koʻproq janubi-gʻarbiy qismi Oʻzbekiston (Qoraqalpogʻiston), shimoli-sharqiy qismi Qozogʻiston hududida joylashgan. Oʻtgan asrning 60-yillarigacha Orol dengizi maydoni orollari bilan oʻrtacha 68,0 ming km² ni tashkil etgan. Kattaligi jihatidan dunyoda toʻrtinchi (Kaspiy dengizi, Amerikadagi Yuqori koʻl va Afrikadagi Viktoriya koʻlidan keyin), Yevrosiyo materigida (Kaspiydan keyin) ikkinchi oʻrinda edi[1]. Oldin orol dengizi aynan kattaligi boʻyicha dunyoda 4 oʻrinda turgan hozirda esa katta qismi qurib qolgan. Asosan hozirda orol dengizi 2 qismga boʻlinib qolgan boʻlib Qozogʻiston hududida kichik orol va Qoraqalpogʻiston respublikasi hududida gʻarbiy orol dengizlaridir. Har qanday narsani paydo boʻlishi va yoʻq boʻlishida qandaydir bir omillar sabab boʻladi. Ushbu maqolada ham orol dengizining qurishida qanday tabiiy yoki antropogen omillar taʼsir qilgani haqida maʼlumotlar berilgan. Bu maʼlumotlar hududni oʻrgangan yuqori ilmiy boʻlgan olimlarning yigʻgan maʼlumotlari asosida yozilgan.



Orol dengizining suv sathini kamayishi yillar kesimida koʻrsatilgan.

Asosiy qism: Orol dengizining qurishiga turli xil omillar taʼsir koʻrsatgan. Bular haqida eng asosiy deb qaraladigan omil bu Amudaryo va Sirdaryo daryolaridagi suvdan katta miqdorda foydalanish sabab deb koʻrsatiladi. Bir tomondan bu ham toʻgʻri gap. Amudaryo va Sirdaryo daryolaridagi suvdan jami 9 10 mln

gektar maydonni sug'orish mumkin. Bu sug'orish ekstensiv usulda sug'orish misolida aytilgan. Agar zamonaviy usullar orqali sug'orilsa 9 10 mln gektar emas balki 15 20 mln gektar maydonni ham sug'orish mumkin. Endi asosiy mavzuga qaytsak orol dengizining qurishiga sabab bo'lgan omillarning eng o'ziga jalb qiladigani bu Orol dengizi va Kaspiy dengizini birlashtirib turadigan yer osti tunnelga o'xshash koridor deb hisoblaydigan odamlar ham anchagina. Bu yer osti o'tish joyi tufayli ancha balandda joylashgan orol dengizidan suv Kaspiy dengiziga oqib ketgan degan xalq orasida shunday fikrlar bor. Bu koridorning qanday qilib paydo bo'lganligi haqida shunday ma'lumotlar berilgan unda aytilishicha Ustyurtda, ya'ni platoning Qozog'iston qismida Manqishloq viloyatiga qarashli Akotti, Mulkaman va Kindikti degan joylarida 9 marotaba yadroviy portlash amalga oshirilgan. Ulardan yiriklari: 30 kilotonnalik kuchga ega bomba 1969 yil 6 dekabr kuni 410 m chuqurlikda, ikkinchi 80 kilotonnaligi 1970 yil 12 dekabrda 740 m chuqurlikda va uchinchi 75 kilotonnaligi esa 1970 yil 23 dekabrda 500 m chuqurlikda portlatilgan.

Ushbu sinovlardan maqsad yer ostidan chuchuk suv ko'zlarini ochish, suv zaxirasini yaratish bo'lgan. SHu paytlarda AQSHning Nevada shtatida ham xuddi shunday sinovlar amalga oshirilgandi. Sobiq ittifoq ham qudratini namoyish qilish uchun Ustyurtda yasalma chuqurliklar hosil qilishga urindi.

Ammo sinovlar muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi. Birinchidan, sinov paytida halokat yuz berib, radiyasiya yer yuziga chiqib ketdi. Hududda xavflilik darajasi hamon saqlanib qolgani aytiladi. Ikkinchidan, portlash paytida kuchli silkinishlar yer plitasini o'rnidan qo'zg'ab, oqibatida Orol va Kaspiyning o'rtasida yer osti koridorini paydo qilgan va Orol dengizi Kaspiydan 60–70 metr balandlikda bo'lgani bois, suv quyiga qarab ketib qolgan. Yadroviy sinovlardan keyin dengiz suvining shiddat bilan pasayishi kuzatilgan, masalan, 1961–63 yillarda dengiz sathi 18–25 sm pasaygan bo'lsa, 1969 yilda 15 sm.gacha bir ko'tarilib olib, keyingi yillarida 70–100 sm.gacha bo'y tashlab borgan. Kaspiy dengizi esa 1977 yildan keyin 18 yil davomida tinmay, yiliga 32–40 sm.ga ko'tarilib boraveradi. 1995 yilga kelibgina vaziyat biroz o'z iziga tushgan. Bu suv o'tadigan koridor borligi haqida bir nechta sabablar bor. Orol bilan Kaspiyning o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha yana bir afsona xalq orasida yuribdi.

O'tgan asrning 30-yillarida olimlar Kaspiy dengizida bakrabaliq urchitish uchun ularga belgi qo'yib (sirg'a taqib) suvga qo'yib yuboradi. SHu sirg'a taqilgan bakrabaliqlar Orol dengizidan chiqqan. Yer sathining biri baland nuqtasida, biri pastida joylashgan ikki dengizning o'rtasida aloqa mavjudligini tekshirish uchun bo'yoq oqizib ko'riladi. Taajjubki, Orol dan yuborilgan bo'yoq Kaspiyda ko'rinadi. Olimlar bu sirni ochmoqchi bo'lganda ikkinchi jahon urushi boshlanib ketib, boshlangan ishlar qolib ketadi. Aytishlaricha, Stalinning buyrug'i bilan 1940- va 1960-yillarda ikki dengiz o'rtasida sirli qurilish amalga oshirilgan emish. Yer osti qurilishlarida urushda asirga tushgan va o'limga mahkum etilganlar ishlagan. Asirlikdan ovuliga qochib kelgan bittasi shu sirni e'lon qiladi.

Bu qanchalik haqiqatga yaqinligi noma'lum-u, ammo Stalin Kaspiy dengizi suvlarini quritib, neft sanoatini ulg'aytirish istagida bo'lganligi aniq.

Stalin vaqtidagi KGB boshlig'i Ivan Serovning "Zapiski iz chemodana" memuarida ta'kidlanishicha, Stalinning olimlar-u mulozimlarga topshirig'i shunday bo'lgan: "Volgani Qozog'iston dashtlariga olib boring, Kura daryosini to'g'onlang va Kaspiy dengiziga quyilmasligi uchun boshqa daryolarni, suv ko'zlarini nima qilish kerakligini o'ylab ko'ring!"

Ma'lumki, bu loyihaning juda katta qimmatga tushishi Stalinning fikridan qaytishiga sabab bo'lgan.

Mana shu yerda Kaspiyga quyilishi mumkin bo'lgan suvlarning biri Orol dengizi suvlari edi. Demak, bu haqda avval ham ma'lum bo'lgan bo'lishi mumkinmi? 1825-26 yillarda Orol va Kaspiyga ekspedisiya qilgan F.Bergning yo'qotilib yuborilgan hisobotlarida shu haqda ma'lumotlar qayd etilgandir, balki. Ehtimol, shu topshiriq ortidan Orolning yer ostidagi ko'zini boylash uchun qandaydir sirli qurilishlar olib borilgandir. Bu gaplar rost yoki yolg'onligi haqida ko'pchilik olimlar turlicha fikrdadilar. Bular eng asosiy omillardan hisoblanadi.

Orol muammosi haqida qisqacha!

1913 yilda Orol dengizi suvi bilan sug'oriladigan yer maydoni 3,2 mln gektar bo'lgan bo'lsa, 1985 yilga kelib bu ko'rsatkich 6,9 mln gektarga yetdi.

Turli ehtiyojlar uchun Orol dengizidan sarflanadigan suv 1960-yillarda 63 km kub, 1980 yilda esa 95 km kubni tashkil etgan.

XX asr davomida Orolbo'yi hududlarida, Markaziy Osiyo va qisman Afg'oniston aholisi soni 14 mln.dan 65 mln.gacha keskin ortdi.

SHuningdek, qishloq xo'jaligi maqsadlarida yerning sho'rini yuvishga ham katta miqdorda suv sarflangan. Orol dengizining qurib borishi natijasida bir qator salbiy holatlar yuzaga keldi. Orol hududida paydo bo'lgan zaharli tuz uyumlarining zarralari Pomir tog'lari, Antarktida sohillari, Grenlandiya muzliklari, Norvegiya o'rmonlarigacha yetib bormoqda. YOvvoyi o'simliklar va hayvonot dunyosi qirilib ketmoqda. Orolbo'yi hududida lokal iqlim keskin o'zgarishlarga uchradi. Ichimlik suvi tanqisligi, xavfli kasalliklar tarqalishi, yashash sharoitlari og'irlashuvi natijasida Orolbo'yi hududidan aholi migrasiyasi ko'paydi.

Xulosa: Orol dengizining qurishiga sabab turli olimlar tomonidan turli davrlarda turlicha fikr va qarashlarni ilgari surdilar. Ulardan qaysi biri haqiqatga yaqin buni aniq bilishimiz qiyin. Lekin shuni aytish mumkinki xalq orasidagi afsona ham haqiqatdan bo'lgan bo'lishi mumkin. Balkim shu yerosti suv o'tish joyini topib yopib tashlansa yana suv yuborilishi natijasida orol dengizini qutqarish mumkin bo'lar. Bilamizki hozirgi kunda katta etibor insonlarga ularni o'qishi va salomatligiga qaratilgan lekin bularga etibor berish ham kerak lekin oldin orol dengizi haqida fikr yuritish muhim deb hisoblaymiz. Sababi insonlar oliy malumotli bo'lgani bilan tuz va changdan kasal bo'lib qolishsa bu ancha achinarli hol.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Orol_dengizi internet sayti.
2. Yesimxon Qanoatov, "Ishonch" muxbiri. Ma'lumotlari asosida.
3. <https://www.uzavtoyul.uz/uz/post/orolni-qutqarish-xalqaro-jamgarmasi-sammiti-boshlandi.html>
4. Turli xil internet saytlari.